

DIJON SUV TA'MINOTI" M.CH.J.
XONOBOD SHAHAR BO'LIMI
2263800100285369303
"IPOSTEKA BANK" ANDIJON VIL. FIL
000059 STIF:2011

II-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova
suv xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA

2022 y. "26" suboh b-18-son Xonobod shahri (tumani)
(shartnoma imzolangan joy)

Ushbu shartnomani "Andigon suv Ta'minoti" MCHJ Xonobod sh. filiali, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiluvchi, nizom asosida faoliyat yurituvchi M.Sidikov shaxsida bir tomondan, hamda keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi ish olib boruvchi Diyon asosida sh. Xonobod ikkinchi tomondan quyidagilar haqida tuzdilar:
(Ф.И.О.)

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq II guruh iste'molchisi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazib berish narx bo'yicha 2860 m³ni:

1 m³ ichimlik suv uchun 1200 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni;
1 m³ oqova suv uchun 1200 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda.

Shu tariqa 291820 umumiy qiymati jumladan, budget mablag'laridan Ushbu so'mni tashkil qildi (summa yozuv bilan). Shu budgetdan tashqari mablag'laridan Ushbu so'm to'lanishi ko'zda tutilgan.

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvlar uchun hisob-kitoblar Iste'molchi bilan (budget tashkilotlaridan tashqari) avans to'lovlari tartibida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilish sharti bilan yoki Ta'minotchi tomonidan hisob varaqasi (shot-faktura)lar taqdim etish orqali, shuningdek, budget tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'linmalari orqali o'zaro hisob-kitob qilishga o'tkazilgan mablag'lar bilan Ta'minotchi taqdim etadigan shot-fakturalar bo'yicha amalga oshiriladi.

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatli (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, har o'ying 10 sanasigacha 70 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish, majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi) rioya etishi, shuningdek, Iste'molchi, Ta'minotchi tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilishi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari

tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqini $1m^3$ ichimlik suv uchun 145860 so'm, $1m^3$ oqova suv xizmati uchun 145860 so'm to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Iste'molchi Ta'minotchi ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. Iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar Ta'minotchi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar Iste'molchi va unga ulangan subiste'molchi turli guruh iste'molchilariga mansub bo'lsa, Ta'minotchi bilan shartnomani Iste'molchi ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

Iste'molchi (subiste'molchi)ga berilgan ichimlik suv hajmi uchun to'lovlar Ta'minotchiga, ularning suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari bo'yicha va ular mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida to'lanadi.

Ta'minotchi bilan shartnoma tuzgan Iste'molchi o'zi mansub guruhdagi subiste'molchilarga ulangan bo'lsa, subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv va chiqarilgan oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar asosiy iste'molchi bilan, u mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, Iste'molchi, o'zi ishlatgan suv uchun Ta'minotchiga amaldagi tariflar asosida to'lovlarni amalga oshirishda subiste'molchilarga yetkazib berilgan suv hajmlarini ham inobatga olgan holda hisob-kitob qiladi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda:

a) irrigatsiya suvi bo'lmaganda;
b) ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan Iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalanadi.

2.6. Suvni hisobga olish asbobi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tekshirilgan va tamg'alangan bo'lishi va suv o'lchash tarmog'i suv ta'minotchi tashkilot tomonidan plombalanishi shart. Shuningdek, ichimlik va oqova suvini xisobga olish asbobini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

2.7. Iste'molchiga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash asbobining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda Iste'molchi bilan kelishiladi.

Iste'molchida suvni hisobga olish asbobining ishlashi nazorat qilinganda, o'lchovlarning texnik tavsifnomasida yo'l qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdorda suv iste'mol qilingan taqdirda Ta'minotchi suv o'lchash uzeli amalda sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametrdagi asbonga (berilgan kundan keyingi 30 kalendar kun ichida) qayta jihozlashga ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatma bajarilmagan taqdirda suvdan foydalanish va oqova suvlarni chiqarish uchun to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash asboblarini ishga tushirish, almashirish, yangi subiste'molchilarning ulanishi Iste'molchi

tomonidan faqat Ta'minotchi tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular Iste'molchining so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidan olingan texnik shartlar Iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi Ta'minotchi tomonidan, Iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarigan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan Iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va Iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar Ta'minotchi bilan Iste'molchi o'rtasidagi, kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalari)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, Iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun — Iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa Iste'molchining mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Tarafdarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz ravishda yoki Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblarini o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim

etilgandan keyin 18 soat mobaynida Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduqlarning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchi tomonidan o'rnatilgan plombalarning saqlanishini nazorat qilish, yer usti suv oqimlarining quduqlar yonidan oqizib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlariga kirib borish yo'laklarini tirband qilmaslik, yong'in gidrantlari ko'rsatkichlarining ishg'a yaroqliligini kuzatib borish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) turli predmet va materiallarning uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki tasarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalari ustida hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashqi joylashuvda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida), yerlarda biror-bir inshootlarni qurishga yo'l qo'ymaslik. Amaldagi tarmoqlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganing zimmasiga yuklanadi;

g) tranzit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardagi o'zlarini aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga zudlik bilan xabar berish;

d) suvni hisobga olish asboblariida yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat bo'yicha ham) Ta'minotchiga uning elektron pochta orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda xabar berish;

e) shartnoma doirasidagi majburiyatlarini bajarish, joriy o'zining 23-25-sanasida suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, joriy o'zining so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlarini Ta'minotchining elektron manzili yoki telefon raqami orqali yohud Ta'minotchi joylashgan manzilga borgan holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv sarfi va oqova suvlar oqizilishining shartnomada belgilangan hajmlarda oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) subiste'molchilardagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdagi suvni yo'qotishni oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashli va u xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

i) ishlab chiqarish oqova suvlaridagi ifloslanish konsentratsiyasini normativda (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarari bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) me'yorgacha yetkazgan holda oldindan tozalashini ta'minlash;

y) kanalizatsiya tarmog'iga oqiziladigan oqova suvlar sifati bo'yicha monitor o'rnatish;

k) o'z hududida joylashgan suv o'lchash uzeli, kommunal ichimlik suv kanalizatsiya tarmoqlarida olib boriladigan barcha turdagi ishlarni bajarishga bog'liq shaxslarni kiritmaslik;

l) Ta'minotchi vakilining ishtirokisiz quduqlar (kameralar) qopqog'ini ochishga ruxsat bermaslik;

m) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda Iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yomg'ir va erigan qor suvlarining oqizilishiga yo'l qo'ymaslik (Iste'molchiga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlarda oqizilishi bundan mustasno). Mazkur huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchi vakili, belgilangan tartibda, Iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralarini belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tuzadi;

n) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasizsiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar berish.

3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) Ta'minotchi, Iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarini qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a.a) Iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va Ta'minotchi vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha Ta'minotchi talablari Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

a.b) Ta'minotchi mansabdor shaxsi Iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va Ta'minotchi naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda Iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

a.v) Ta'minotchi tomonidan Iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

a.g) Iste'molchi tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

a.d) Iste'molchi tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarini chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

a.ye) Iste'molchining tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

a.yo) Iste'molchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

b) Ta'minotchi quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

b.a) Ta'minotchining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b.b) tabiiy ofatlar ro'y berganda;

b.v) avariya holatlarida;

b.g) yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. Ta'minotchining majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

v) suv ta'minoti uzluksizligini ta'minlash (Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida suv berish holatlaridan tashqari);

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalariga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlarini tashkil qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

ye) Iste'molchining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanilmayotganlik holatlarini aniqlash, suv berish va undan foydalanishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblari o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib turish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvohnomasizs biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

i) shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda Iste'molchiga penya to'lash;

y) Iste'molchining shartnoma shartlariga rioya etmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablari, xizmat ko'rsatishdagi to'xtalish muddatlari va cheklanishlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarning o'zgarishi sabablari haqida Iste'molchiga axborot berish;

l) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida Iste'molchini uzilishlar boshlanguncha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish;

m) ichimlik suvni iste'mol qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar bilan Iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta) orqali xabardor qilish;

n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari, rasmiy sayti) yordamida Iste'molchini xabardor qilish;

o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish.

IV. Tarafdarning javobgarligi

4.1. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) Iste'molchini me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlariga hamda mazkur shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;

b) Iste'molchiga me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar hamda qonunchilik asoslari va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) sifatlil ichimlik suv yetkazib berish;

v) Iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ulanish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlarni taqdim etish;

g) suvni hisobga olish individual asboblari o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda Iste'molchidagi suvni hisobga olish asboblarning yechib olinishi, o'rnatilishi, ko'rsatkichlari nazorat qilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

d) Iste'molchining mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berish;

e) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarini bajarmaganlik.

4.1.1. Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra uzilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:

a) Qoidalarining 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtatganda;

b) Iste'molchining aybiga ko'ra.

4.1.2. Ta'minotchi, agar suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yengib bo'lmaydigan kuch yoki suv ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlari Iste'molchi tomonidan buzilganligi tufayli sodir bo'lganini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda isbotlansa, u sifat buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

4.1.3. Tozalash inshootlari, nasos stansiyalari quvvatining yoki kommunal suv quvvatlarining suv o'tkazish quvvatining yetarli emasligi tufayli suv ta'minotida muntazam ravishda uzilishlar bo'lgan taqdirda Ta'minotchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda, Iste'molchini unga suv berilishi rejalarini haqida xabardor qilib, alohida tumanlarga suv berilishi yuzasidan javob beradi. Shu bilan birga, Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan normal ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan sabablarni bartaraf etishga doir barcha zarur tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, shuningdek suvni hisobga olish asboblari mavjud bo'lmaganda - suvni berish soatlariga mutanosib ravishda qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan javob beradi.

4.2. Iste'molchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) kanalizatsiya tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning butligi, saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatdagi uchung;

b) O'ziga qarashli sanitariya asboblari, kanalizatsiya tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tibaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli Iste'molchining kanalizatsiya tarmoqlarida yoki Ta'minotchida, ichimlik suv va kanalizatsiyaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun;

v) Ta'minotchi bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish asbobi, ayylanma liniya zulfini, yong'in zulfini, gidranlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda Ta'minotchi tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlanishi uchun;

g) Ta'minotchiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda.

4.3. Suvni hisobga olish asbobi va stvol zulfidagi plombaning saqlanmaganligi va but emasligi aniqlangan taqdirda, so'nggi dalolatnoma tuzilgan sanadan e'tiboran, ammo eng ko'pi bilan uch oydan oshiq bo'lmagan davr uchun, to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Plombalangan yong'in zulfini va gidrantlaridagi plombalarni uzishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

oqzish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

VI. Alohida shartlar

6.1. Obyekt egasi o'zgaranda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlari to'lab, bu haqda Ta'minotchi bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik obyektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Quyidagi holatlarda sarflangan ichimlik suv miqdori Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq hisoblanadi:

a) agar Iste'molchi suvni hisobga olish asbobi bilan ta'minlanmagan bo'lsa, b) suv o'lichash asbobi yoki moslamasi Ta'minotchida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, v) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zboshimchalik bilan ulanib olinganda (o'zboshimchalik bilan ulanish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish dalolatnomasi tuzilgan kundan, shuningdek agar o'zboshimchalik bilan ulanish bo'lgan bo'lsa, o'zboshimchalik Ta'minotchiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'z muddatdan ko'p bilan ulanish kundan boshlab u aniqlangunga qadar, biroq uch oylik muddatdan ko'p bo'lmagan holda);

g) suvni hisobga olish asbobi Iste'molchi aybi bilan ishdan chiqqan (suvni hisobga olish asbobi sifatiz suv bilan birga oqib keluvchi qum, tosh va loyqa yig'ilishi natijasida ishdan chiqqanligi haqida tegishli xulosa mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno).

6.3. Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtacha sarf bo'yicha aniqlanadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obyektini loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan yoki muddati o'tgan hollar Ta'minotchi tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. Iste'molchi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda Ta'minotchi tomonidan xokim qarori, kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar Ta'minotchi tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida amalga oshiriladi.

Bu to'lovlar Iste'molchi tomonidan 3 ish kuni ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda Ta'minotchi kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0.4 foiz penya hisoblaydi, ammo uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

6.7. Shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi kommunal kanalizatsiya tizimiga jala suvlari ruxsat etilmagan holda oqizilgan taqdirda Iste'molchiga nisbatan ishlab chiqarish oqova suvlarini oqizganligi uchun amaldagi tariflarga nisbatan qo'shimcha uch barobarlik

a) Ta'minotchi bilan kelishilgandan so'ng suv ta'minotining yong'ing qarshi tizimi faoliyati tekshirilganda va yong'in nasoslari sinovdan o'tkazilganda;

b) Ta'minotchini xabardor qilmagan holda yong'in o'chirilganda va yong'in xavfsizligi organlari tomonidan yong'ing qarshi suv ta'minoti tizimining sinovlari o'tkazilganda.

4.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'ing qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda iste'molchi 24 soat mobaynida Ta'minotchiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfnlarni plombalash uchun Ta'minotchi vakilini chaqirishi shart.

4.6. Suv quvuriga o'zboshimchalik bilan ulangan, sovuq suvni hisobga olish asboblarning buzilishiga ataylab yo'l qo'ygan, shuningdek ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblari tashqaridan aralashgan iste'molchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, xar oyni 10 sanasiga qadar 70 foizlik oldindan haq to'lash tartibida amalga oshirishi lozim.

5.2. Iste'molchi shartnomada belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda to'lovlarning kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.3. Ta'minotchi shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar (bajarilmagan ishlar) bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.4. Iste'molchi ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan shartlar asosida va tartibda o'z vaqtida to'lamasa, Ta'minotchi Iste'molchini yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab 5 ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iste'molchini ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zboshimchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) Iste'molchini qayta ulashda Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koeffitsiyentgacha qo'llaniladi.

5.6. Obyekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimiga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda Ta'minotchi tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obyektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni

koefitsiyent ta'biq etiladi. Hisob-kitob tashkilotning maydoni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalarida hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibiga muvofiq kadastr va meteorologik ma'lumotlarga binoan amalga oshiriladi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida Iste'molchi yoziladigan e'tiroznomani to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda Ta'minotchiga u joylashgan manzilga borgan holda yoki Ta'minotchining telefon raqami, elektron pochta yohud pochta xizmati orqali taqdim etishi kerak. E'tiroznomani Iste'molchini to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

E'tiroznomani Ta'minotchi tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Ular asosli deb topilsa, to'langan ortiqcha summa keyingi to'lov hujjati hisobiga o'tkaziladi. Iste'molchi e'tiroznomani ko'rib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotdan, u taqdim etgan telefon raqami (shu jumladan mazkur telefon raqamning teleqram ijtimoiy tarmog'idagi profili) yoki pochta xizmati orqali, e'tiroz ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muddat tugagandan keyin 3 kun muddatda xabardor qilinishi lozim.

Agar ko'rsatilgan muddat ichida iste'molchi xabardor qilinmasa, masala iste'molchi foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va shartnomaga oid boshqa holatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi orqali hal qilinadi. Taraflar tomonidan nizolar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Iste'molchi joylashgan manzildagi tegishli sudlar orqali hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profililar va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartnoma imzolangan va g'aznachilik bo'limlarida ro'yxatga olingan kundandan boshlab kuchga kiradi va 01.01.2023 yilgacha amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va taraflar tomonidan imzolinishi shart.

X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

«TA'MINOTCHI»

Manzil: Xonobod shahar I. Karimov k.
Tel: +998941022407, faks: +998978322407

z/h-r 22638000100285369303

Bank: ATIB Ipoteka bank
Bank kodi: 00059 STIR 200230760
XHTUT90213

Shaxsiy raqam

Shaxsiy h-

F

Bank

Bank kodi

STIR

STIR

(g'aznachilik bo'limi nomi)

Rahbar: M. Sattikov

(F.I.O. imzo)

202__y.

«ISTE'MOLCHI»

Manzil: Xonobod shahar I. Karimov k.
Tel: +998941022407, faks: +998978322407

g'az/h-r

Bank

Bank kodi

XHTUT

Shaxsiy raqam

Shaxsiy h-r

Bank

Bank kodi

STIR

STIR

(g'aznachilik bo'limi nomi)

Rahbar: M. Sattikov

(F.I.O. imzo)

202__y.

Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq tuzilgan.

Yuridik konsult:

«__» __ 202__y.

Хонобод шаҳар Сув окова корхонаси ва Хонобод шаҳар БУСМ мактаби уртасида "26" январ 2022 йилда
тузилган 291720 сумлик № сонли шартномага -сонли илова

	Ичимлик суви				Окова сув				шундан туловлар манбаси	
	Улчов бирлиги	Микдори	Нархи	Жаъми суммаси	Улчов бирлиги	Микдори	Нархи	Жаъми суммаси	бюджет хисобидан	махсус хисоб ракамдан
Йиллик жаъми		102		145860		102		145860	291720	0
1-чорак		102		145860		102		145860	291720	0
январь	м3	34	1430	48620	м3	34	1430	48620	97240	
февраль	м3	34	1430	48620	м3	34	1430	48620	97240	
март	м3	34	1430	48620	м3	34	1430	48620	97240	
2-чорак		0		0		0		0	0	0
апрель	м3			0	м3			0	0	
май	м3			0	м3			0	0	
июнь	м3			0	м3			0	0	
3-чорак		0		0		0		0	0	0
июль	м3			0	м3			0	0	
август	м3			0	м3			0	0	
сентябрь	м3			0	м3			0	0	
4-чорак		0		0		0		0	0	0
октябрь	м3			0	м3			0	0	
ноябрь	м3			0	м3			0	0	
декабрь	м3			0	м3			0	0	

Томонларнинг манзили ва банк реквизитлари

"Хизмат курсатувчи"

Андижон сув окова таминоти МЧЖ
Манзил. Хонобод шаҳар
Тел.факс. _____
Х/р. 22638000100285369303
Банк. Ипатека Банк
МФО. 00059 ИНН. 200230760
ОКОНХ. 90213

Рахбар. М.Сиддиқов



"Мижоз"

Хонобод шаҳар БУСМ
Манзил. Хонобод шаҳар Ишчилар кучаси №1
Тел.факс 734-22-99
ш.х/р. 100022860034087083610245001
ИНН.207062134 ОКОНХ.91700
Газначилик булими номи.
Молия Вазирлиги Газначилиги.
Х/р.23402000300100001010.
Банк. Марказий банк Тошкент ш.Х.К.К.М
МФО: 00014 ИНН: 201122919

Рахбар. Ф.Нажмидинов

